

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI HUZURIDAGI
BADIY TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA PEDAGOG VA MUTAXASSIS
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH HAMDA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

“HAYKALTAROSHLIK (TURLARI BO‘YICHA)” YO‘NALISHI

**“HAYKALTAROSHLIKNI O‘QITISH METODIKASI”
MODULI BO‘YICHA**

O‘QUV–USLUBIY MAJMU‘A

Toshkent 2023

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: N.Usmanov – Katta o‘qituvchi.

Taqrizchilar: A.Xotamov – dotsent.
J.Annazarov – dotsent.

O‘quv dasturi O‘zBA huzuridagi Markaz Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan (2023 yil 1-maydagi 2- sonli bayonnoma).

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	3
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.	13
III. NAZARIY MATERIALLAR	21
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	21
V. KEYSLAR BANKI.....	38
VI. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI.....	43
VII. GLOSSARIY	45
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	Ошибка! Закладка не определена.

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta‘lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999 yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta‘lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta‘lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tasviriy va amaliy san‘at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta‘lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 21-iyundagi 385-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalar, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yangi bosqichga olib chiqish, pedagog va mutaxassis kadrlar salohiyatini oshirish va shu orqali talabalarning badiiy estetik didini yuksaltirish kabi muhim vazifalar qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ga ko‘ra mamlakatdagi oliy ta‘lim muassasalarining 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan. Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta‘lim muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi.

Shuningdek, 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining V bob Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan 75-maqсад: Tasviriy va amaliy san‘at hamda

dizayn yo‘nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta‘lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta‘lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta‘lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu dasturda xorijiy davlatlardagi kredit ta‘lim tizimlari, kredit tizimi asosida ta‘lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta‘minlashning innovatsion metodlari, kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati, kredit-modul tizimida o‘quv jarayonining uslubiy ta‘minoti, ta‘lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni, ta‘lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari, oliy ta‘limning normativ-huquqiy asoslari bayon etilgan.

Bugungi kunda oliy ta‘lim muassasalari tomonidan ta‘lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda: O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun, farmonlar, qarorlar hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining buyruqlari kabi normativ hujjatlar qo‘llanilmoqda. Lekin shu kunga qadar ta‘lim va tarbiya jarayonlarini subektlari tomonidan ushbu hujjatlarni amalda qo‘llanilishining nazariy va amaliy jihatlari deyarli o‘rganilmagan. Bu holatlar oliy ta‘lim muassasalarida qo‘llaniladigan oliy ta‘limning normativ-huquqiy asoslarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o‘kuv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- “Haykaltaroshlik (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

-mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta'minlash;

- "Haykaltaroshlik (turlari bo'yicha)" yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

"Amaliy san'atda kompozitsion yechim masalalari" modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- hozirgi zamon haykaltaroshlik nazariyasi asoslarini;
- bo'rtma (qabariq), dastgoh, relyef, barelyef, gorelyef, kontrrelyef va o'yma haykaltaroshlik turlarini;
- haykaltaroshlik ashyolarini;
- zamonaviy haykaltaroshlikda modernizm (kubizm, geometrik abstraksiya, De Steyl, supermatizm, konstruktivizm, dadaizm, syurrealizm, futurizm, formalizm, abstrakli ekspressionizm, pop-art, maksimalizm, lendo-art, istomatsiya)ni;
- turli haykaltaroshlik ashyolarida ishlash va ulardan foydalanisht usullarini;
- haykaltaroshlik asarlarini har tomonlama inson ehtiyoji talablariga javob beradigan holda me'moriy muhitga moslashtirish usullarini;
- mayda plastika tushunchasi, mayda plastik asarlarning o'ziga xosligini;
- mayda plastikaning asosiy turlarini;
- medalyer san'ati, mayda plastika ta'sirchanligining asosiy vositalarini;
- abstrak haykaltaroshlik, minimalizm va postminimalizm – haykaltaroshlikning yangi zamonaviy oqimlari sifatida ekanligini *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- haykaltaroshlik san'atida plastik, yo'nilovchan va quyish borasida foydalanadigan zamonaviy ashyolardan foydalanish;
- haykaltaroshlikda zamonaviy ashyolarda ishlash texnologiyalarini qo'llash;
- bronza, marmar, yog'och, sun'iy tosh, oyna, plastik materiallar, sopol, qimmatbaho materiallar, gips, loy, shamot va boshqa turli xom ashyolardan foydalanib zamonaviy kompozitsiyalar yaratish texnologiyalarini o'rganish;
- kompozitsiyaning plastik yechimi, hajmdoshlik, masshtablilik, proporsionallik, shakl plastikligi qonunlarini o'rganish;

- medalyer san'ati asarlarining o'ziga xosligini o'rgatish;
- kichik shakldagi mihiyurli hajmdagi haykaltaroshlik asarlarini yaratish;
- amaliy san'atning realistik maktab an'alarini o'rganish, saqlash hamda rivojlantirish.
- hozirgi zamon amaliy san'atining yangi pog'onalarini egallash.
- yaratilgan va yaratilayotgan badiiy asar ta'sirchanligini anglash, xis etish va uning badiiy g'oyasini oshirish.
- 3D - model va fotohaykaltaroshlikda qo'llaniladigan zamonaviy ashyolar, to'ldiruvchi komponentalarni taxlil qilish;
- badiiy asarning kompazitsion qurilishini o'rganish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab olish bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish;
- me'moriy innovatsiyalarni funksional jihatdan ilg'or shakllarini yaratish;
- kichik va katta formadagi me'moriy haykaltaroshlik elementlarini yaratish;
- ommaviy jismlar san'atiga oid, kam sonli, betakror minatyurali haykaltaroshlik namunalarini tahlil qilish;
- natyurmort, peyzaj, kichik hajmdagi shaklli, landshaft dizayni, kinitik mayda plastik haykaltaroshlik asarlarini qo'llash;
- kichik shakldagi badiiy quyish, chekanka, toblash, yopishtirishning zamonaviy texnologiyalari qo'llaniladigan san'at asarlari yaratish;
- badiiy ijodga estetik munosabat tarixini bilish;
- go'zallikni anglash va baholashda estetika tushunchalarining o'rni va rolini tahlil etish;
- badiiy asarni estetik idrok etish *malakalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- haykaltaroshlik fanining zamonaviy nazariy asoslarini o'rganish;
- shakl yaratish qonuniyatlari o'rganish;
- me'moriy innovatsiyalarni ilg'or shakllarini yaratish;
- haykaltaroshlikda ashyoda ishlashning ilg'or texnologiyalaridan фойдаланиш;
- hozirgi zamon amaliy san'atining yangi pog'onalarini egallash;
- turli haykaltaroshlik ashyolarida ishlash va ulardan foydalaniш;
- kichik shakldagi haykaltaroshlik va mayda plastika turlarini yaratish;
- san'atning asosiy estetik kategoriyalarini qo'llash *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Haykaltaroshlikni o‘qitish metodikasi” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi, shuningdek, ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda ustaxonalar, sohaga oid muassasalar va soha mutaxassislarining ijodiy ustaxonalarida tashkil etilishi, badiiy ta’limning muhim ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Haykaltaroshlikni o‘qitish metodikasi” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Raqamli universitet” modeli va oliy ta’lim jarayonini boshqarishning axborot tizimlari”, “Ta’lim menejerining innovatsion kompetentligi” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar badiiy ta’limning ta’lim va tarbiya jarayonlarini o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi			
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot
1.	Haykaltaroshlikni o‘qitish metodikasi	4	4		
2.	Buyumlarni uch o‘lchamlik holatini ko‘rsatish	4	2	2	
3.	Tekisliklarni bir-biriga nisbatan holatini aniqlash	4		4	
4.	Plastilin yoki loyda ishlash malakasini egallash	4		4	
5.	Natyurmort rel‘yefi haqida tushuncha	4		4	
6.	Plastilinda lola bargli rozetkani lepka qilish jarayoni	4		2	2
7.	Hayvonlar plastikasi haqida tushuncha	4		2	2
8.	Antik davriga mansub bo‘lgan gips niqob shakli rel‘yefini ishlash.	2			2
	Jami:	30	6	18	6

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Haykaltaroshlikni o'qitish metodikasi

(4 soat)

Hozirgi zamon xaykaltaroshlik nazariyasi asoslari. Bo'rtma (qabariq), dastgoh, relyef, barelyef, gorelyef, kontrrelyef va o'yma haykaltaroshlik turlari. Haykaltaroshlik ashyolari. Haykaltaroshlik san'atida plastik, yo'nilovchan va quyish borasida foydalanadigan zamonaviy ashyolar. Haykaltaroshlikda zamonaviy ashyolarda ishlash texnologiyalari. Bronza, marmar, yog'och, sun'iy tosh, oyna, plastik materiallar, sopol, qimmatbaho materiallar, gips, loy, shamot va boshqa turli xom ashyolardan foydalanib zamonaviy kompozitsiyalar yaratish texnologiyalari. 3D - model va fotohaykaltaroshlikda qo'llaniladigan zamonaviy ashyolar, to'ldiruvchi komponentalar. Haykaltarosh sohasida kadrlar tayyorlashda ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantirish. Iqtidorli, ijodkor haykaltarosh ko'nikmalarini shakllantirish. Badiiy asarning kompozitsion qurilishini o'rgatuvchi fanning ahamiyati. Zamonaviy haykaltaroshlikda modernizm (kubizm, geometrik abstraksiya, De Steyl, supermatizm, konstruktivizm, dadaizm, surrelizm, futurizm, formalizm, abstrakli ekspressionizm, pop-art, maksimalizm, lendo-art, istomatsiya). Amaliy san'atning realistik maktab an'analarini o'rganish, saqlash hamda rivojlantirish. Hozirgi zamon amaliy san'atining yangi pog'onalarini egallash. Mayda plastika tushunchasi, mayda plastik asarlarning o'ziga xosligi. Mayda plastikaning asosiy turlari. Medalyer san'ati, mayda plastika ta'sirchanligining asosiy vositalari. Kompozitsiyaning plastik yechimi, hajmdoshlik, masshtablilik, proporsionallik, shakl plastikligi qonunlari. Medalyer san'ati asarlarining o'ziga xosligini o'rgatish. Kichik shakldagi mihiyatli hajmdagi haykaltaroshlik asarlari. Ommaviy jismlar san'atiga oid, kam sonli, betakror miniatyurali haykaltaroshlik namunalari

2-mavzu. Buyumlarni uch o'lchamlik holatini ko'rsatish

(2 soat)

Dastlabki o'quv mashg'ulotlari 2-3 buyum yoki mevalardan tuzilgan eng oddiy ko'rnishdagi natyurmort qo'yilmasini yasashni tashkil qilishdan iborat bo'ladi. Chunki hali lepka qilish usullarini butunlay o'zlashtirmagan talaba uchun bu topshiriq qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Rangtasvir kabi qo'yilmadagi narsalar bir biriga mutonosib bo'lishi relyef xarakterini boyitadi. Plastilin natyurmorti ilgari tasvirlangan ish turidan murakkabligi va ko'p qirraliligi bilan ancha farq qiladi, shuning uchun ham mashg'ulotlarda tasvirlashning faqat ma'lum darajada, eng oddiy va eng qulay usullaridan foydalaniladi. Talabalar odatda o'quv mashg'ulotlarda plastilin va haykaltaroshlik loyidan foydalanadilar, amalda sinovdan o'tgan ushbu usullar nafaqat mashg'ulotlarda, balki mustaqil ijodda ham ishlatiladi. Ko'rgazmalarda namoyish etilgan ushbu texnikada bajarilgan ishlar har

doim chinakam qiziqish hosil qiladi va ajablantiradi, chunki ular oddiy plastilindan shu darajada mukammal qilingan. Natyurmort-kundalik hayotdagi yoki tabiat buyumlari (uy-ro'zg., or buyumlari, mevalar, gullar va boshqalar) tasvirlanadigan jarayon. Ob'ektni tasvirlash uchun biz u haqida aniq tasavvurga ega bo'lishimiz kerak. Buning uchun tasvirlanayotgan qo'yilmani batafsil tahlil qilishimiz lozim.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Buyumlarni uch o'lchamlik holatini ko'rsatish.

(2 soat)

Lepka jarayonining asosiy maqsadi bo'rtma qavariqli haykal ishlash ekan bunda qo'yilmadagi buyumlarning hajmdorligini ko'rsatish uchun uning uch o'lchamli holatini ifodalab, tasvirley olish lozim. Buning uchun yosh haykaltaroshdan buyumlarning to'liq shaklini kuzatib tahlil qilish, uni amalda bajarish, xuddi rangtasvir va qalamtasvirdagi kabi naturadagi yorug' soyalarni aniqlab yuzaga chiqarish va qabariqlikni birma -bir shaklantirib borish talab etiladi. Taglikka biriktirilayotgan plastilin qalamchizgidagi shtrixlar singari shakl berishda o'z xususiyatiga ega bo'lib uning plastiklik darajasi ancha yuqori. Imkoni boricha bitta rangli plastilindan foydalanish, rangtasvir uslubi (grizayil) yoki (monoxromli) kabi tasvirlash (yasash) usullarini tez o'zlashtirishga ko'maklashadi

2-mavzu. Tekisliklarni bir-biriga nisbatan holatini aniqlash

(4 soat)

Lepka paytida narsalarning joylashuv o'rniga qarab ulardagi chuqurlik, balandlik, hajmdorligi aniqlanib tekislikka nisbatan qay darajada ekanligini hisobga olib loy parchalari ustma- ust qo'yilib boriladi. Tasvirni bajarishda kompozitsiyadagi buyumlarning joylashuv o'rniga qarab lepka qilinadi. Ba'zan qolipdan chiqqan natyurmort rel'yefini zarur bo'lsa o'ziga mos rang gammasida bo'yash ham mymkin

3-mavzu. Plastilin yoki loyda ishlash malakasini egallash

(4 soat)

Lepka jarayonida plastilin yoki haykaltaroshlik loyidan foydalanishda dastavval ushbu xom ashyolar bilan ishlash usullari bilan yaqindan tanishib ko'nikamaga ega bo'lish zarur. Har bir xom ashyo va materiallar o'ziga xos xususiyatga ega. Loy haqida o'tgan mavzularda ham tushuncha berilgan. Loyning yumshatib qayta ishlatish mumkin. Loyning namini qochirmasdan maxsus idishlarda saqlansa uzoq muddat bir xilda turadi. Plastilin esa tayyor holda bo'ladi uni xohlagan vaqtda to'g'ridan to'g'ri ishlata olamiz. Qo'yilmani tasvirlash jarayonida taglikka asosiy yuza ya'ni orqa fon ko'rinishi plastilin bilan ma'lum

qalinlikda to'liq yopiladi va shuning ustiga narsalarning shakli chiziladi. Shundan so'ng quyidagi rangli mato fonida berilgan qo'yilmadagi uch bargli gips rozetka, vaza, qo'sh baldog'li kulol idish va boshqalar tasviri tushiriladi. Buyumlar atrofidagi materiallar taglikka nisbatlari saqlangan holda eskiz qilinadi. Shu tasvir chizgilari ustidan yumshatilgan loy va plastilin bo'lakchalari yopishtiriladi

4-mavzu. Natyurmort rel'yefi haqida tushuncha

(4 soat)

Mashg'ulot mavzusiga mos ko'rinishga ega natyurmort qo'yilmasini yasash bosqichlari bilan tanishib chiqamiz. 1-bosqich. Oldingi mashg'ulotlardagi kabi ushbu qo'yilmani yasash uchun taglikka buyum va narsalarni eskizi to'liq tushuriladi, shundan so'ng konturlar ichi plastilin parchalari bilan to'ldirilib boriladi. Lepka qilishda narsalarning joylashuv o'rniga qarab planlilikni saqlab bo'rttirib ishlanadi.

Haykaltaroshlikda ham natyurmort kompozitsiyasi xuddi rangtasvir yoki qalamtasvirdagi kabi kompozitsiya qonuniyatlariga bo'ysinadi. 2-bosqich. Taglikka konstruktiv qurish ham odatdagidek bajariladi. Faqat modellashtirish (lepka)da hajmli tasvirlash bo'lgani uchun hamma o'lchamlari hisobga olinadi. Shunga tayanib ish jarayoni davom etadi. Rel'yef ishlash haqida tushunchaga ega bo'ldingiz qo'yilmadagi har bir narsa buyum va mayda detallarigacha taglik yuzasiga to'liq ko'chiriladi. Shundagina o'xshashlik ta'minlanadi, hajmdorlik topiladi va yorug'-soyalar paydo bo'lib haqqoniylikka erishiladi. (84- rasm) Plastilindan ishlanayotgan natyurmort ilgari tasvirlangan ish turidan murakkabligi va ko'p qirraliligi bilan farq qiladi, shuning uchun bu sohaga endi kirib kelayotgan yoshlar bilan ishlashda faqat individual, murakkab bo'lmagan va eng qulay usullar qo'llaniladi

5-mavzu. Plastilinda lola bargli rozetkani lepka qilish jarayoni

(2 soat)

Lyuks - plastilini kichik detallar ishlashdan tashqari turli xil figuralar va haykaltaroshlik kompozitsiyalarini yasash uchun mo'ljallangan, u boshqalaridan plastik xususiyati bilan farqlanadi, shaklni mustahkam ushlab turadi, ishlash vaqtida qo'llar va asboblarga yopishmaydi, yog'li dog'lar qoldirmaydi. San'at maktabi mashg'ulotlarida talabalar va haykaltaroshlar tomonidan qo'llaniladigan qulay usullaridan biri haykal yasash oldidan, bir oz qo'lingizda yoki issiq suv ostida xamirni o'ynab yumshatib olinadi. Gamma – bu haykaltarosh plastilin kichik figuralarni modellashtirish uchun ajoyib variant, unchalik yopishqoq emas. Bu sizga turli xil kichik, o'rta va katta o'lchamdagi narsalarni modellashtirish hamda ularni batafsil ko'rsatish imkonini beradi. Katta o'lchamdagi naturalar karkasda bajariladi, aks holda karkassiz naturadagi loy vaqt o'tishi bilan bo'shashib suzishi mumkin. Rozetka - turli shakl va o'lchamdagi bezakli figuradir. Ular doira, ellips,

ko'pburchak, uchburchak, kvadrat, to'rtburchak shaklida bo'ladi. Ular tashqi tomondan ham, ichkaridan ham binolarni bezashda keng qo'llaniladi, lekin ko'pincha ular shiftga, ayniqsa qandillar osiladigan joylarga o'rnatiladi.

5-mavzu. Hayvonlar plastikasi haqida tushuncha

(2 soat)

Hozirgi vaqtda odam va hayvonlar anatomiyasini o'rganish muammosi bir qator fanlarning bir qismi bo'lib, ularning har biri o'z qiziqishidan kelib chiqib o'rganadi. Anatomiya (disektsiya) - bu tananing shakllanishini va tana qismlarining o'zaro aloqalarini o'rganish uchun bir-biridan ajratish orqali bo'linadigan (suyaklar, mushaklar, tendonlar va boshqalar) tuzilishini o'rganuvchi fan. Bu tadqiqotni turli maqsadlarda o'tkazish mumkin: birinchidan, umumiy biologik taqqoslash nuqtai nazaridan hayvonlar sinflari bo'yicha o'xshashlik va farqlarni topish uchun - qiyosiy anatomiya; ikkinchidan, amaliy bilimlar nuqtai nazaridan, shifokor va jarroh uchun zarur bo'lgan organlarning nisbiy holatini aniqlash - jarrohlik yoki topografik anatomiya; uchinchidan, tananing tashqi shakllarini aniqlaydigan organlarning joylashuvi va tuzilishini o'rganish - plastik anatomiya u ham shakllar anatomiyasi, rassomlar uchun anatomiya deyiladi. Plastik anatomiya - (yunoncha anatomiya - disektsiya) – inson va hayvonlar tanasining plastik xossalarini, tashqi shakllari va nisbatlarini o'rganuvchi anatomiya bo'limi, animalist rassomlar uchun - shuningdek, hayvon va qush tanasining egiluvchanligi o'rganuvchi fan hisoblanadi

KO'CHMA MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Plastilinda lola bargli rozetkani lepka qilish jarayoni.

(2 soat)

Gamma – bu haykaltarosh plastilin kichik figuralarni modellashtirish uchun ajoyib variant, unchalik yopishqoq emas. Bu sizga turli xil kichik, o'rta va katta o'lchamdagi narsalarni modellashtirish hamda ularni batafsil ko'rsatish imkonini beradi. Katta o'lchamdagi naturalar karkasda bajariladi, aks holda karkassiz naturadagi loy vaqt o'tishi bilan bo'shashib suzishi mumkin. Rozetka - turli shakl va o'lchamdagi bezakli figuradir. Ular doira, ellips, ko'pburchak, uchburchak, kvadrat, to'rtburchak shaklida bo'ladi. Ular tashqi tomondan ham, ichkaridan ham binolarni bezashda keng qo'llaniladi, lekin ko'pincha ular shiftga, ayniqsa qandillar osiladigan joylarga o'rnatiladi.

2-mavzu. Hayvonlar plastikasi haqida tushuncha.

(2 soat)

Plastik anatomiyani bilish uchun boshlang'ich nuqta skelet hisoblanadi. Keyin, bu asosiy ma'lumotlarga suyaklarni harakatlantiruvchi mushaklar haqida ko'proq ma'lumotlar qo'shiladi, shunda rassom teri orqali odam va hayvonlarning shakllarini, ularning harakatlarini aniqlaydigan anatomik birikmalarni tahlil qila oladi. Mashhur frantsuz anatomisti M. Duvalning "Rassomlar uchun anatomiya" kitobi 1844 yilda nashr etilgan, tilning ba'zi ilmiy xususiyatlariga qaramay, hali ham eng yaxshilaridan biri hisoblanadi. Unda muallif mavzuni mukammal bilishini va tizimli taqdimotini namoyish etadi. Anatomiyaning plastik tizimini o'qitishning asosi bo'lgan M. Duvalning sintez usuli oyoq-qo'llar va skeletning harakat mexanizmini tushunishni kuchaytiradi, bu faqat atlas bo'yicha anatomiyani tushuntiradigan tahlil usulidan farq qiladi. 1955 yilda Vilgelm Tankning "San'atkorlar uchun hayvonlar anatomiyasi" kitobi Drezdenda nashr etilgan bo'lib, uning boshida u barcha hayvonlarning umumiy xususiyatlarini hisobga oladi va keyin alohida turlarga o'tadi

3-mavzu. Antik davriga mansub bo'lgan gips niqob shakli rel'yefini ishlash.

(2 soat)

- Qalamtasvir fanining dastlabki mashg'ulotlarida gips modellar tasvirni bajarish rejalashtirilgan. Ular ishtirokida natyurmort qo'yilmalarini tuzish va ularni bosqichlar asosida chizishni mashq qilish mo'ljallangan. Ko'pincha hajmli tasvirlashda qalamtasvirni haykaltaroshlikka o'xshatadi. O'quv vazifasi: 1. Ishni gips boshining tasvirini planshetga joylashtirishdan boshlash kerak, yorug'likni hisobga olgan holda tasvirlash. 2. Bosh shaklining xarakterini hajmli-konstruktiv va chiziqli usullar bilan aniqlang ufq chizig'i va sirtlarni perspektiv qisqartirish nisbatlarini hisobga olgan holda konstruktiv qurish. 3. Chizmani tonal o'rganish va moddiylikni, xavoni uzatish bilan tugaydi. perspektivalar; qarama-qarshilik qonunlarini ochib berish, umumlashtirish bilan yakunlash, narsalarni umumiylikga bo'ysundirish. 4. Chizma gips boshining turli pozitsiyalaridan qisqa eskiz va qalamchizgilar bajarish.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.

“Aqliy hujum” metodi

Aqliy hujum usuli

Aqliy hujum (breynstroming - aqlar to‘zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g‘oyasini javoaviy yuzaga keltirish.

Aqliy hujum va masalani yechish bosqichlari

1. Mustaqil fikrlang xayolingizga kelgan barcha g‘oya, fikrlarni qog‘ozga yozing.
2. Barcha g‘oya va fikrlarni yozing, agar ular takrorlanayotgan bo‘lsa, maxsus belgi qo‘ying.
3. G‘oyalarni baholang.
4. Eng maqbul g‘oya guruh g‘oyasi sifatida shakllantiradi.
5. Barcha yozilgan g‘oyalar guruh muammosini yechish
6. Guruhning umumiy javobi shakllantiriladi.

“SWOT-таҳлил” методи.

Metodning ma ajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• тўсиқлар

Namuna: Rassom ijodkorlar uchun SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Rassom kim ? Badiy asar yaratuvchi.	Rassom bu tinmay izlanuvchi ijodkor inson
W	Umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan rassomlar.	Zamonaviy yunalishda ijod etayotgan taniqli rassom A.Nuridinov asarlarida sevgi, oila, sadoqatlik, tarbiya va jamiyatdagi falsafiy tamoyillar asosida ijod etayotgan ijokorlardandir
O	Rassomlar chiziqlar, shakllar, ranglar, tasviriy san’at vositalari yordamida badiy obrazli asar yarata oladigan insonlar. (ichki)	Ular tasviriy san’at vositalardan, chiziqlar, shakllar, tasviriy san’at vositalari bilan tasvir orqali o‘z g‘oyasini, fikrini bayon eta oladilar.
T	To‘siqlar (tashqi)	Rassomlarga erkinlik bo‘lmasa chiziqlar, shakllar, tasviriy san’at vositalari bilan o‘z asarlarida tasvir orqali bayon eta olmaydilar.

“Baliq skeleti”

Natyurmort kompozitsiyasini “Baliq skeleti” chizmasi Bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. **4**



Мисол: “Рассом ижодкорлар” мавзусидаги матн. Биламиз. Билишни истаймиз? Билиб олдик. (БББ)

Bilamiz	Bilishni istaymiz	Bilib oldik
1. Rassom yangi g‘oyada asar yaratadigan inson.	1. Xar bir izlanuvchi insonni rassom deb atash mumkinmi?	Ilmiy amaliy izlanishlarni olib boruvchi, yangi usul va vositalarni qo‘llay oladigan insonni rassom deymiz.
2. Rassomlar tasviriy vositalardan, chiziqlar	2. Dunyodagi g‘oyaviy kompozitsilarni tasvirla	R. Ahmedov tasvirlagan asarlar hozirgi rassomlar

shakllar, vositalarni o'z asarlarida tasvir orqali bayon eta oladigan insonlar. Ma'naviy estetik tarbiyalovchi	oladigan rassomlar qatoriga kimlarni kiritsa bo'ladi.	uchun amaliy metodik o'quv jarayonidagi rivojlanishida foydalanilmoqda.
3.Rassomlar asarida insonlarni ma'naviy-ma'rifiy estetik tarbiyalovchi insonlardir.	3.Rassom bo'lish uchun nima qilish kerak?	O'ral Tansiqboyev manzaralarini butun o'zbekistondagina emas balki yevropa davlatlrida xam maroq bilan tomosha qiladilar.
4.Rassom bu tinmay izlanuvchi inson	4.Ijodiy asarlarni tasvirlashni payoni bormi?	Abdulhaq Abdullayev portret janrida ijod etgan taniqli rassomlardandur.
5.Umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan rassomlar.	5.Kompyuterda ijodiy asar yaratsa bo'ladimi ?	Zamonaviy yunalishda ijod etayotgan taniqli rassom A.Nuridinov asarlarida sevgi, oila, sadoqatlik, tarbiya va jamiyatdagi falsafiy tamoyillar asosida ijod etayotgan ijokorlardandir.
6.O'zbekistonlik rassomlar	O'zbekistonda taniqli metodik qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar ustida ishlab kelayotgan taniqli rassom va pedagoglardan kimlarni bilasiz?	O'zbekistonda taniqli metodik qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar ustida ishlab kelayotgan taniqli rassom va pedagoglardan: B.Boymetov, M.Nabiyev, O.Egamov, R.Xudayberganov, R.Djalilova

Интерьерда натюрмортни акс этириш

Интерьер -

xonadonning ichki ko'rinishini perspektivada aks etiriladi. Tasviriy san'at janrlaridan: natyurmort, portret, tarixiy, maishi animal ko'rinishlarda fon vazifasini o'taydi.

Interyerda uyni eshik derazalarning shakli, hajmi, devor va shift, polni bezagi va uy jihozlarining bezagi tasviri orqali qaysi davrga mansubligini bilib olishimiz mumkin. Interyer - ichki me'moriy muxit xolati orqali xonadon sohibasining didi haqida yoki zavod sexning jihozlanishiga qarab ilmiy, taraqqiyot

holati haqida xulosa chiqarish mumkin. Interyerda natyurmortni perespektivada aks etirish, tasvirlash jarayonlari ko'rsatilgan.

Interyer, kompozitsiyasi mavzusidatasviriy san'at o'qitishning zamonaviy texnologiyasini qo'llash.

Кейс-стади” методи

«**Keys-stadi**» - inglizcha so'z bo'lib, («catse» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim? (Who), Qachon? (When), Qayerda? (Where), Nima uchun? (Why), Qanday? Qanaqa? (How), Nima-natija? (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Insert” metodi.


Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- “Tasviriy san’at” bo‘yicha yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, rangtasvir bo‘yicha o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar professor - o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.



“Briefing” - (ing. Briefing - qisqa) Rangtasvir bo‘yicha biror – bir masala yoki savolning muhokamasiga bag‘ishlangan qisqa press - konferensiya.

O‘tkazish bosqichlari:

1. ТақДИМОТ қИСМИ.

2. Муҳокама жараёни
(савол-жавоблар асосида).

Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, biror bir asarni chizishdan oldin bir shakl sifatida oldin chizilgan bior asar masalan: “Monaliza” portretini olaylik tinglovchilar bilan birga shu asar qachon va kim tomonidan yaratilganligi muhokama qilinadi va boshqa rassomlarni chizgan portretitahlil qilinadi. Talabalar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan yangi asar taqdimoti o‘tkaziladi.

“Portfolio” metodi.

“Portfolio” – (ital. Portfolio - portfel, ingl. hujjatlar uchun papka) ta’limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o‘quv - metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig‘indisi sifatida aks etadi. Jumladan, har bir tinglovchilarning modul yuzasidan o‘zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshirish mumkin bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

Faoliyat turi	Ish shakli	
	Individual	Guruhiy
Ta'limiy faoliyat	Talabalar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Talabalar guruhi, tinglovchilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O'qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.

Har bir tinglovchi kurs mobaynida o'zining shaxsiy portfoliosini kiritib boradilar.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu. Haykaltaroshlikni o‘qitish metodikasi (4 soat)

Nafis haykaltaroshlik buyumlari o‘zining nafisligi, kichik o‘lchamdaligi bilan ajralib turadi. Uni qo‘lga olib ko‘rish mumkin. Nafis haykaltaroshlikda kishining diqqatini o‘ziga tezda jalb qiluvchi materiallardan: chinni, sopol, yog‘och, metall va toshlarning qimmatbaho turlari, fil suyagi va shu kabilardan foydalaniladi.

Haykaltaroshlikning maktab sharoitida keng tarqalgan turlaridan biri, loy yoki plastilin bilan ishlashdir. Ma’lumki, haykaltaroshlikni o‘rganishda qalamtasvir alohida ahamiyat kasb etadi. San’at sirlarini o‘rganishning keyingi bosqichi ham o‘z samarasini bera boshladi. Albatta, ilm va san’atni o‘rganish ustozlarning mehru mahoratlariga bog‘liq.

Ilhom Jabborov bilim yurti va san’at institutida ta’lim olgan yillaridayoq o‘zining iqtidori bilan ajralib turar edi. Shuning uchun ham u yaratgan asarlar rang-barangligi, kompozitsiyalarga boyligi bilan ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, uning “Hayol” nomli asari diqqatga sazovordir. Shunday qilib, Ilhom Jabborov o‘ta rang-barang haykallar yarata boshladi. Haykaltarosh bir qator allomalar obrazini yaratishga muvaffaq boldi.

Haykaltaroshlik - tasviriy san’at turi; borliqni hajmli shakllarda, makonda uch o‘lchamda tasvirlashga asoslanadi. Tasvir ob’yekti, asosan, inson; shuningdek, hayvonlar, tabiat va narsalar. Haykaltaroshlikning 2 asosiy ko‘rinishi — aylanib kuzatish imkonini beruvchi dumaloq haykal hamda faqat bir tomondan ko‘rishga mo‘ljallangan bo‘rtma tasvir relyef turiga farqlanadi. Relyef, o‘z navbatida, yuzaga nisbatan bir oz bo‘rttirib ishlanadigan barelyef hamda tasvir yuzaga nisbatan ancha bo‘rttirib ishlanadigan gorelyefta bo‘linadi; shuningdek nursoya o‘yini hisobiga tasvir ko‘zga tashlanadigan tekis yuzaga ishlanadigan yana o‘yma ko‘rinish mavjud.

Haykaltaroshlikda ijodkor nursoya o‘yinidan foydalanish orqali asarning ta’sir kuchini oshirishga erishadi. Bu ayniqsa monumental va bezak haykaltaroshlik asarlari uchun qo‘l keladi, chunki maydon yoki hiyobonga o‘rnatilgan haykalga ertalabki quyosh nurlari bir joziba bersa, kechki kun botish paytidan quyosh nurlari boshqacha bir fayz kiritadi. Haykaltaroshlikda insonning tashqi ko‘rinishi, sokin yoki harakatdagi holatini aks ettirish bilan uning imkoniyati tugamaydi, asarda kechinmalar, hayajon, g‘amginlik va boshqalar o‘z ifodasini topadi.

Me’morlik san’ati bilan bog‘liq bo‘lgan monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o‘rnatilgan monument, yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi, ular o‘zida katta mazmunni ifodalaydi hamda mustaqil ahamiyatga ega.

Biroq haykaltaroshlikning bu turi bevosita muhit, me'moriy insho-otlar hamda tabiat bilan uyg'un bo'lishi lozim, bu unga yanada ulug'vorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi. Monumental haykaltaroshlikka xos bo'lgan xislatlardan biri qahramonlarni ko'tarinki ruhda tasvirlashdir. Monumental haykaltaroshlik asarlari uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi sababli, katta-katta yaxlit shakllardan keng foydalaniladi; odam yuzidagi mayda unsurlar, kiyimdagi buklanishlar, mayda qismlar ko'rsatilmasligi mumkin.

Bezak haykaltaroshlikka istirohat bog'lari, xiyobonlar, ko'cha va bog'lar, shuningdek, me'moriy binolarning devorlarini bezash uchun ishlanadigan turli bezak haykallar kiradi; asarlarida ramziy obrazlar, hayvonlar shakli keng ishlatiladi. Binolarning devorlariga ishlanadigan bo'rtma tasvirlar, amaliy san'at buyumlari yuzasiga ishlanadigan bezaklar, favvora, panja-ra, badiiy darvozalar ham shu haykaltaroshlikning ko'rinishidir.

Dastgoh haykaltaroshligi mustaqil mazmunga ega bo'lgan, san'atning boshqa turlariga tobe bo'lmagan asarlar kiradi; ular ko'rgazmalar, muzey xonalariga va uylarning interyeriga qo'yish uchun mo'ljallanadi. Bu tur asarlarda voqelik o'zining butun borlig'i bilan aks ettiriladi hamda inson ruhiyatidagi nozik o'zgarishlar, uning ichki kechin-malari, kayfiyatini ochib berish imkoniyati katta.

Dastgoh haykaltaroshlik asarlari byust, tors, haykal, haykalcha koloss, janrli haykal va boshqa ko'rinishda bo'ladi. Kichik shakllar haykaltaroshda o'z xarakteriga ko'ra amaliy bezak san'atiga yaqin turadi. Bunga stol ustiga qo'yiladigan sopol, chinni va boshqa xom ashyolardan ishlanadigan haykallar kiradi. Eng ko'p tarqalgan turlaridan biri terrakota; medal yasash sanati va gliptika ham shu turga mansub.

Haykaltarosh mahorati, to'g'ri topilgan harakat, yuzdagi mimik holat asarning ta'sirli bo'lishida muhim o'rin tutadi. Haykaltaroshlik asarlari uchun tosh, granit, bronza, marmar, yog'och, metall, sement, gips kabi turli materiallar ishlatiladi. Haykaltaroshlikda tanlangan xom ashyo uning rangini belgilaydi. Xalq haykaltaroshligidagina haykallarni bo'yash hollari uchraydi.

Haykaltaroshlik asarlari yaratishda yumshoq moddalar, qattiq moddalardan kesib yoki o'ymakorlik bilan keraksiz qismlarini olib tashlash yo'li bilan yaratiladi; suyuq holatdan qattiq holatga o'tish xususiyatiga ega bo'lgan moddalardan qolip yordamida quyib ishlanadi; keramika haykaltaroshlik asarlari tayyorlashda maxsus loy navlaridan foydalaniladi, shakl bo'yama naqsh yoki rangli sir bilan qoplanadi va maxsus pechlarda kuydiriladi.

Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida o'quvchilar loy yoki plastilindan dumaloqlash, bosib yalpaytirish, siqimlab cho'zish, ortiqcha qismlarini inaxsus sidirgich yordami bilan olib tashlash, stek bilan ishlash usullari bilan tanishadilar. Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida ikki xil ish uslubi mavjud bo'lib, ular yaxlit, alohida-alohida loy yoki plastilin boiaklariga ishlov berish orqali amalga oshadi.

Dekorativ haykaltaroshlik haykaltaroshlikning turlaridan biri bo'lib, u o'quvchilarda turli dekorativ bezakli releflar va o'yinchoqlar ishlash orqali maxsus bilim hamda malakalar hosil qiladi. Dekorativ haykaltaroshlikda ishlov berish usullarining soddaligi, shakllarning oddiyliigi o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Dekorativ haykaltaroshlik mashg'ulotlarida o'zbek xalq kulol ustalarining dekorativ haykallaridan keng foydalanish bolalarni ijodiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Shuni aytish joizki, O'zbekiston o'zining qisqa vaqtidagi mustaqillik yillari davomida iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi yutuqlari bilan bir qatorda, mafkuraviy-ma'naviy, madaniy ishlarga e'tiborini kuchaytirib, jahonning rivojlangan davlatlari orasida o'z nufuzi va obro'sini yuqori ko'tarmoqda. O'zbekiston tasviriy dastgoh san'ati juda qisqa vaqtda rivojlanib, katta yutuqilarga erishdi. O'zbekiston san'ati zafarli yo'lni bosib o'tdi.

Haykaltaroshlik san'atining o'lkamiz hududidagi zamonaviy jihatlarini ijodkor Damir Ro'ziboev faoliyatida yaqqol ko'rish mumkin. Dastlab rangtasvir va grafika san'ati bilan shug'ullangan. Damir Ro'ziboev haykaltaroshlik olamiga asosan 60-yillarda kirib keldi. San'atkor ijodida shakl va hajmlarning o'ziga xosligini harakatlarni tabiiylik bilan tasvirlanishi, u tanlagan mavzularning rang-barang va keng qamrovligidan ham yaqqol sezish mumkin. Uning bir qancha haykallarida xalqimizning madaniy hayoti va ziyolilar qiyofasini aks ettirgan asarlariga duch kelamiz.

2-mavzu. Buyumlarni uch o'lchamlik holatini ko'rsatish (2 soat)

Haykaltaroshlik bu san'at turiga tobora u uchun sezilarli darajada kelgusi kundalik hayotga kiradi. Ko'pincha biz haykalning bir qismi bo'lgan narsalar bilan o'ralganimizni sezmaymiz. Masalan, guruchlar, medag'izalar, tangalar, tangalar, javon, kayohlar va boshqalar. Bularning barchasi haykalning xilma-xilligi va uning yaxlitligi haqida bir vaqtning o'zida.

Asarlar va materiallar haykaltaroshxonaga qahramonning ulug'vor yodgorligi va kichik naqshinkor pendantni yaratishga imkon beradi. Ular orasida turli xil va haykaltaroshliklarning janrlari bor

Uch o'lchovli hajm asosida:

- dumaloq haykal Kosmosda erkin joylashgan asarlar, I.E., dumaloq ko'rib chiqish, o'yin hajmi va makonini taxmin qiling. Dumaloq haykal bir nechta navlari:

haykal (Raqam o'sib bormoqda);

haykaltaroshlik guruhi (ikkita raqam va bitta son va bitta butun sonning tarkibiy qismlarini aniqlash);

statuet (kichik o'lchamdagi haykallar figurasi, uning haqiqiy qadriyatlaridan kam);

torso (odamning tanasining haykaltaroshlik tasviri);

bo'g'in (inson gilos tasviri);

bosh (Boshning tasviri bilan cheklangan odamning haykaltarosh portreti).

Boshqa turdagi haykal paydo bo'ldi - kinestetikuni askarni talab qilmaydi, u o'zini o'zi amalga oshirilgan harakatlar tufayli namoyish etadi;

- yordam berish (Rasm - bu fonda xizmat ko'rsatadigan samolyotda joylashgan, "ko'tarilgan", "konveks"). Buning haykalidan xalos bo'lishning asosiy farqi shundaki, bu blokning yuz qismi qabul qilinadi, chunki u devor bilan bog'langan. Yengillik bir nechta navlari Ular arxitektura tekisligidagi maqsadlariga va pozitsiyasiga qarab farq qiladi (frontal tarkibi, fidiz, shift, plitkalar, parchalanib ketgan).

Yengillikning joylashgan joyi uning balandligi ta'sir qiladi:

bas-relief - Kichik balandlikka ega bo'lish, u umumiy hajmining kamida yarmini bajaradi. Bastal-rellikdagi haqiqiy ovoz biroz talaffuz qilinadi, u fon va oldingi samolyot o'rtasidagi sayoz zonada tuziladi;

burker - Yuqori balandlikdagi yengillik, u balandlikning yarmidan ko'prog'idan ko'proq chiqadi. Kiruvchilarning namoyandalari haykallarni devorga yaqindan o'tkazib yuborishadi. Kuyishchilar uch tomondan ko'rish mumkin, u fonga bemalol kirib, haykaltaroshlik shaklini quchoqlaydi;

qarama-qarshi - chuqurroq yengillik, bu sirtida chiqmaydigan, ammo balandlikdan chiqib ketish;

aralash relief U bir necha turdagi yengillik elementlariga ega. Masalan, konveks naqshinkor tasvir pechkada, uning chuqur ingichka ingichka ingichka ingichka ingichka ingichka tortilgan.

-monumental bezak, aniq me'moriy va fazoviy yoki tabiiy muhit bilan bevosita bog'liq. Uning boshqa turdagi haykallarning asosiy farqi, masalan, arxitektura binosi bilan bog'liq, masalan, ajralmas mavjuddir. yengil, freezes, old, Balustralar, portallar, bo'g'iqlar, haykallar shaklidagi ustunlar (karyatidlar, atlanta);

- bezak Parklar, bog'lar, ko'chalar, kvadratchalar, xilobonlar, favvoralar uchun mo'ljallangan. Arxitektura bilan bir qatorda shaharning ayrim qiyofasini yaratadi, landshaft yoki me'moriy ansamblga yo'naltirilgan alohida tuzilish bilan bog'liq emas. Dekorativ haykalda, siz buni aniqlashingiz mumkin ko'rishlar:

bog 'bog'i - dam olish maskanlarida joylashtirilgan (kvadratchalar, parklar, bog'lar, xiyobonlar, dam olish uylari, sanatoriya va boshqalar);

shahar- Shahar ko'chalarida joylashgan bo'lib, u ko'ziliq ko'chalarni tantanali, qiziqarli, ba'zan kulgili qiladi.

Shahar haykaltaroshlikda siz bir nechta tanlashingiz mumkin yo'nalishlar:

yodgorlikturli xil madaniyat, qahramonlarga va davlat arboblari bag'ishlangan;

plastik ishlariMoskvada Arbatda joylashgan Arbatda joylashgan "Natali va A.S.S.S. Pushkin" haykalining tarjimai holi;

allegorik haykaltaroshlikRasm orqali mavhum g'oyani uzatish. Shimoliy urushda Shvetsiyada Shvetsiyada bo'lgan Shvetsiyada bo'lgan personals-ga bag'ishlangan haykaltaroshlarning allegorik haykaltaroshlarning ishlashi mumkin; og'zaki xalq ijodidan fitna " Smokayak - tuzlangan quloqlar "Perm; Sankt-Peterburgda" Chizik-Pyshik ";

kollektiv tasvirni namoyish qilish haykaltaroshlik Har qanday kasb yoki ommaviy hodisalar (masalan, itning yodgorligi, yo'lakka, K. Bankiuzi »haykaltarosh," o'pish "haykalining yodgorligi, derazaga ulangan" dushnik "haykaltaroshi; turar-joy binosi);

- mashina Mustaqil qadriyat va yaqin xarakterga ega bo'lish, to'g'ridan-to'g'ri arxitektura, landshaft bilan bog'liq emas. Bu ba'zi bir joyda mo'ljallanmagan, uning idroki joylashgan joyga ta'sir qilmaydi.

"Mashinas" so'zidan yuz berdi - bu usta ish paytida haykalni qo'yadigan aylanma stend. Shuning uchun, po'lat haykaltiya buyumlarning rasmlari (inson, ob'ektlar, hayvonlarning) haqiqiy hajmiga yaqin. U barcha stakan muzeylar, turar joylar, ko'rgazmalarda, u tanish vositasi bo'lgan ko'rgazmalarda joylashgan;

- kichik shakli haykaltaroshlik O'zining mohiyatida ko'pchilik va turli xil belgilar, funktsiyalar va janrlarning keng doirasi. Kichik shaklning haykali turar-joylararo ichki mavzular, din xonalari uchun mo'ljallangan kichik mahsulotlarni chaqirish uchun odatiy holdir;

- Kichik plastik (Kichik, miniatyura) o'lchamlari). Eng qadimgi sayoz plastmassalar - bu san'at xamirlik. (Urgan holda qattiq o'lchanadigan minerallarda o'tkazilgan). Ushbu asarlarning ba'zilari ko'plab chuqurliklarga ega bo'lib, ular ularni muhr sifatida ishlatishga imkon berdi. Rasmlarning o'zi deb nomlangan intilish turli madaniy va tarixiy davrlarda turli shakllar turlicha bo'lgan. Yana bir xil sayoz plastmassalar - suyak o'ymasi (fil suyagi, walrus), ularning ishlari kichik o'lchamlarga ega. Dunyoning turli burchaklarida ular ushbu baliqchilik bilan shug'ullanishganiga qaramay, ozchilik eng mashhur bo'ldi. Bular orasida Shimoliymogorsk ustalari va yapon miniatyuralari - Netzke raqamlari kiradi.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-mavzu. Buyumlarni uch o'lchamlik holatini ko'rsatish.

(2 soat)

Uch o'lchovli hajm asosida:

- dumaloq haykal Kosmosda erkin joylashgan asarlar, I.E., dumaloq ko'rib chiqish, o'yin hajmi va makonini taxmin qiling. Dumaloq haykal bir nechta navlari: haykal (Raqam o'sib bormoqda);

haykaltaroshlik guruhi (ikkita raqam va bitta son va bitta butun sonning tarkibiy qismlarini aniqlash);

statuet (kichik o'lchamdagi haykallar figurasi, uning haqiqiy qadriyatlaridan kam);

torso (odamning tanasining haykaltaroshlik tasviri);

bo'g'in (inson gilos tasviri);

bosh (Boshning tasviri bilan cheklangan odamning haykaltarosh portreti).

